



*2023- yil yanvar-oktabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 143,0 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning mos davriga nisbatan **112,3 %** ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 143,0** +12,3 %

(2022- y.: **1 017,5**)



Saldo

2023- y.: **-28,2** (2022- y.: **-27,5**)




Eksport

2023- y.: **557,4** +12,6 %

(2022- y.: **495,0**)

TSA'dagi ulushi, %da

48,8



Import

2023- y.: **585,6** +12,1 %

(2022- y.: **522,5**)

51,2



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



Navoiy viloyati jahonning **66** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (**30,3 %**), Rossiya Federatsiyasida (**16,6 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,2 %**), Qozog‘istonda (**5,1 %**) va Turkiyada (**4,6 %**) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

Fransiya	Rossiya	Xitoy Xalq Respublikasi	Qozog‘iston	Turkiya
TSA – 346,7	TSA – 190,2	TSA – 162,0	TSA – 58,8	TSA – 52,6
Eksport: 342,0 Import: 4,7	Eksport: 51,8 Import: 138,4	Eksport: 12,3 Import: 149,7	Eksport: 15,9 Import: 42,9	Eksport: 27,7 Import: 24,9
Ulushi 30,3 %	Ulushi 16,6 %	Ulushi 14,2 %	Ulushi 5,1 %	Ulushi 4,6 %
Latviya	Hindiston	Yaponiya	Litva	Germaniya
TSA – 51,0	TSA – 50,3	TSA – 42,8	TSA – 22,5	TSA – 21,9
Eksport: 0,1 Import: 50,9	Eksport: 40,2 Import: 10,1	Eksport: 0,0 Import: 42,8	Eksport: 7,6 Import: 14,9	Eksport: 0,0 Import: 21,9
Ulushi 4,5 %	Ulushi 4,4 %	Ulushi 3,7 %	Ulushi 2,0 %	Ulushi 1,9 %

*O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Latviya, Hindiston, Yaponiya, Litva, Germaniya va Koreya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Fransiya	3,1	62,2	346,7
<i>Eksport</i>	-	60,4	342,0
<i>Import</i>	3,1	1,8	4,7
Rossiya Federatsiyasi	168,6	226,4	190,2
<i>Eksport</i>	47,7	73,8	51,8
<i>Import</i>	120,9	152,6	138,4
Xitoy Xalq Respublikasi	151,3	210,2	162,0
<i>Eksport</i>	73,3	66,5	12,3
<i>Import</i>	78,0	143,7	149,7
Qozog'iston	64,0	79,4	58,8
<i>Eksport</i>	12,7	19,2	15,9
<i>Import</i>	51,3	60,2	42,9
Turkiya	66,2	57,5	52,6
<i>Eksport</i>	34,7	34,4	27,7
<i>Import</i>	31,5	23,1	24,9
Latviya	0,3	2,7	51,0
<i>Eksport</i>	-	-	0,1
<i>Import</i>	0,3	2,7	50,9
Hindiston	2,7	15,5	50,3
<i>Eksport</i>	0,2	-	40,2
<i>Import</i>	2,5	15,5	10,1
Yaponiya	17,3	24,9	42,8
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	17,3	24,9	42,8
Litva	77,0	16,0	22,5
<i>Eksport</i>	12,7	10,5	7,6
<i>Import</i>	64,3	5,5	14,9
Germaniya	12,0	14,6	21,9
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	12,0	14,6	21,9

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Afg'oniston	7,5	8,7	16,5
<i>Eksport</i>	7,5	8,7	16,5
<i>Import</i>	-	-	-
Koreya Respublikasi	21,2	19,7	16,5
<i>Eksport</i>	0,1	-	0,1
<i>Import</i>	21,1	19,7	16,4
Qirg'iz Respublikasi	6,3	24,7	12,3
<i>Eksport</i>	5,9	22,5	9,7
<i>Import</i>	0,4	2,2	2,6
Daniya	-	0,1	10,2
<i>Eksport</i>	-	-	9,2
<i>Import</i>	-	0,1	1,0
Buyuk Britaniya	4,1	0,2	8,8
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	4,1	0,2	8,8
Eron Islom Respublikasi	8,7	10,4	6,6
<i>Eksport</i>	1,9	2,9	2,2
<i>Import</i>	6,8	7,5	4,4
Chexiya Respublikasi	20,6	1,9	4,9
<i>Eksport</i>	0,3	-	-
<i>Import</i>	20,3	1,9	4,9
Polsha	2,3	2,8	4,0
<i>Eksport</i>	0,6	1,8	3,1
<i>Import</i>	1,7	1,0	0,9
Tojikiston	2,7	5,7	3,9
<i>Eksport</i>	2,4	5,7	3,8
<i>Import</i>	0,3	-	0,1
Belarus	6,3	3,0	3,9
<i>Eksport</i>	1,2	1,8	-
<i>Import</i>	5,1	1,2	3,9



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	1 143 035,0	112,3	100,0
Navoiy sh.	711 745,2	130,1	62,3
Zarafshon sh.	7 541,1	57,0	0,7
G'ozg'on sh.	4 616,7	4,8 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	289 766,3	88,2	25,3
Konimex t.	2 571,4	4,8 b.	0,2
Qiziltepa t.	21 971,3	35,5	1,9
Navbahor t.	36 006,6	104,9	3,1
Nurota t.	8 613,0	120,8	0,8
Tomdi t.	1 046,6	52,0	0,1
Uchquduq t.	9 617,6	65,1	0,8
Xatirchi t.	48 885,1	7,6 b.	4,3
Bo'linmaydigan hajm	654,1	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

62,3 %

Navoiy sh. - 711 745,2

25,3 %

Karmana t. - 289 766,3

4,3 %

Xatirchi t. - 48 885,1

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

0,1 %

Tomdi t. - 1 046,6

0,2 %

Konimex t. - 2 571,4


0,4 %

G'ozg'on sh. - 4 616,7


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **62,3 %** ulush bilan **711 745,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1 %** ulush bilan **1 046,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **24,3 %** ni tashkil etdi.


 Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-oktabr oylarida 2022- yilning shu davriga nisbatan **135,4 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **75,7 %** ni tashkil etdi.



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **557,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,6** % ni tashkil etdi.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**70,6** %), sanoat tovarlari (**13,7** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,7** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI


(yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
	2022	2023		
Jami eksport	495,0	557,4	112,6	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,0	26,2	186,5	4,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	44,6	22,6	50,6	4,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,2	18,9	3,1 b.	3,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	1,1	3,3 b.	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	315,5	393,6	124,8	70,6
Sanoat tovarlari	96,2	76,4	79,4	13,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,1	4,7	34,7 b.	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	15,7	12,7	81,3	2,3
Xizmatlar	2,3	1,2	51,3	0,2

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2022- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2022- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalari, hayvon va o'simliklar moylari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi **557,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga **92,0** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning **16,5 %** ini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)



2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Fransiya (eksport umumiy hajmining **61,4 %**), Rossiya Federatsiyasi (**9,3 %**), Hindiston (**7,2 %**), Turkiya (**5,0 %**), Afg'oniston (**3,4 %**), Qozog'iston (**2,8 %**) va Xitoy Xalq Respublikasi (**2,2 %**) saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **91,3 %** ni tashkil etmoqda.



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'rni
	2022	2023		
Fransiya	60 427,3	341 978,4	5,7 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	73 841,9	51 769,7	70,1	2
Hindiston	-	40 228,8	-	3
Turkiya	34 420,6	27 734,7	80,6	4
Afg'oniston	8 746,7	19 005,2	2,2 b.	5
Qozog'iston	19 185,6	15 870,1	82,7	6
Xitoy Xalq Respublikasi	66 509,3	12 272,0	18,5	7
Qirg'iz Respublikasi	22 477,9	12 200,4	54,3	8
Daniya	-	11 141,7	-	9
Litva	10 501,5	7 637,2	72,7	10
Tojikiston	5 677,9	4 328,2	76,2	11
Belarus	1 795,1	3 186,9	177,5	12
Turkmaniston	26 860,0	2 840,5	10,6	13
Eron Islom Respublikasi	2 953,8	2 492,0	84,4	14
Ozarbayjon	1 053,2	1 047,4	99,5	15
Pokiston	351,0	903,2	2,6 b.	16
Polsha	1 769,1	584,8	33,1	17
Armeniya	392,1	371,5	94,7	18
Ukraina	405,0	349,8	86,4	19
BAA	403,4	331,1	82,1	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **38** tani tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	557 386,3	112,6	100,0
Navoiy sh.	424 511,7	119,4	76,2
Zarafshon sh.	1 884,3	127,3	0,3
G'ozg'on sh. tumanlar:	1 993,1	3,9 b.	0,4
Karmana t.	56 769,0	94,7	10,2
Konimex t.	837,6	2,3 b.	0,1
Qiziltepa t.	4 087,8	9,5	0,7
Navbahor t.	20 305,6	86,5	3,6
Nurota t.	5 980,2	125,4	1,1
Tomdi t.	161,1	19,1	0,03
Uchquduq t.	976,0	108,6	0,2
Xatirchi t.	39 574,0	9,9 b.	7,1
Bo'linmaydigan hajm	305,9	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

76,2 %

Navoiy sh. - 424 511,7

10,2 %

Karmana t. - 56 769,0

7,1 %

Xatirchi t. - 39 574,0

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

0,03 %

Tomdi t. - 161,1

0,1 %

Konimex t. - 837,6

0,2 %

Uchquduq t. - 976,0

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **76,2 %** ulush bilan **424 511,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,03 %** ulush bilan **161,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,3	2,8	4,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,01	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,7	9,0	4,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	1,2	3,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	60,3	63,8	70,6
Sanoat tovarlari	21,3	19,4	13,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,3	0,03	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	2,8	3,2	2,3
Xizmatlar	2,8	0,5	0,2

2023- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlari ulushi **10,3** punktga oshib **70,6** % ni, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar ulushi **2,9** punktga oshib **3,4** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)


XSST tarkibi	Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Hindiston		Turkiya	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Jami eksport	60,4	342,0	73,8	51,8	-	40,2	34,4	27,7
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,7	0,1	-	-	0,3	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	32,7	17,5	-	-	1,6	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,4	0,1	-	-	4,9	7,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	60,4	341,8	1,1	2,3	-	40,2	-	-
Sanoat tovarlari	-	-	26,7	16,2	-	-	27,1	18,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	3,9	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	0,2	11,2	11,2	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	1,0	0,5	-	-	0,5	-



Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda sanoat tovarlari kiradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 1,2 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,2 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 51,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (45,9 %), transport xizmatlari (27,5 %) safarlar (turizm xizmatlari) (22,4 %), va boshqa xizmatlar (4,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 8 175,4 ming AQSH dollar qiymati 11 928,7 tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 120,2 % ni tashkil qildi. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Xatirchi tumanida 3 789,6 ming AQSH dollarini, Qiziltepa tumanida 1 971,0 ming AQSH dollarini, Karmana tumanida 783,3 ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida 567,7 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-oktabr)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Xitoy Xalq Respublikasi	3 566,1	3 641,8	44,5
Qozog'iston	6 752,7	3 037,8	37,2
Pokiston	139,9	549,0	6,7
Litva	541,3	259,8	3,2
Estoniya	297,9	128,7	1,6
Latviya	363,8	116,1	1,4
Eron Islom Respublikasi	90,0	102,0	1,2
Afg'oniston	24,9	99,6	1,2
Rossiya Federatsiyasi	57,1	80,3	1,0
Isroil	11,0	62,6	0,8
Aljir	36,0	52,3	0,6
Koreya Respublikasi	48,0	45,4	0,6

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-oktabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Xitoy Xalq Respublikasi (**44,5 %**), Qozog'iston (**37,2 %**) va Pokiston (**6,7 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2023- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi **585,6** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,1** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**44,6** %), sanoat tovarlari (**28,3** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**12,5** %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi **566,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **19,3** mln. AQSH dollariga yetdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
	2022	2023		
Jami import	522,5	585,6	112,1	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,1	25,6	2,1 b.	4,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,3	11,7	103,5	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,5	2,0	20,7	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,8	4,9	2,8 b.	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	84,3	73,0	86,6	12,5
Sanoat tovarlari	162,6	165,5	101,8	28,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	197,3	261,1	132,3	44,6
Turli xil tayyor buyumlar	32,9	22,5	68,4	3,8
Xizmatlar	10,7	19,3	180,9	3,3

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**44,6 %**), sanoat tovarlari (**28,3 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**12,5 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,4 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning mos davriga nisbatan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (**2,8 barobar**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**2,1 barobar**), xizmatlar (**80,9 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalar (**32,3 %**), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**3,5 %**) va sanoat tovarlari (**1,8 %**) o'sgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi **585,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **31,8** va **68,2** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya va Germaniya) jami importning **80,5** % ini tashkil qiladi, bu **471,6** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)





NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yanvar-oktabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2022	2023		
Xitoy Xalq Respublikasi	143 726,9	149 701,8	104,2	1
Rossiya Federatsiyasi	152 563,9	138 443,5	90,7	2
Latviya	2 655,6	50 927,5	19,2 b.	3
Qozog'iston	60 181,9	42 944,9	71,4	4
Yaponiya	24 893,9	42 799,4	171,9	5
Turkiya	23 107,1	24 921,6	107,9	6
Germaniya	14 587,6	21 904,0	150,2	7
Koreya Respublikasi	19 730,8	18 633,8	94,4	8
Litva	5 517,9	14 921,1	2,7 b.	9
Hindiston	15 510,5	10 104,6	65,1	10
Buyuk Britaniya	235,0	9 690,6	41,2 b.	11
Chexiya Respublikasi	1 869,8	5 508,4	2,9 b.	12
Fransiya	1 815,9	4 692,2	2,6 b.	13
Eron Islom Respublikasi	7 492,6	4 655,1	62,1	14
Polsha	988,4	4 337,6	4,4 b.	15
Avstriya	1 569,0	3 889,1	2,5 b.	16
Kanada	3 855,5	3 457,8	89,7	17
Gonkong	773,6	2 889,8	3,7 b.	18
AQSH	1 970,7	2 868,4	145,6	19
Finlyandiya	2 350,9	2 811,9	119,6	20

2023- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha **57** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	585 648,7	112,1	100,0
Navoiy sh.	287 233,5	150,0	49,0
Zarafshon sh.	5 656,8	48,1	1,0
G'ozg'on sh.	2 623,6	5,7 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	232 997,3	86,8	39,8
Konimex t.	1 733,8	10,4 b.	0,3
Qiziltepa t.	17 883,5	94,5	3,0
Navbahor t.	15 701,0	144,6	2,7
Nurota t.	2 632,8	111,5	0,4
Tomdi t.	885,5	76,0	0,2
Uchquduq t.	8 641,6	62,3	1,5
Xatirchi t.	9 311,1	3,8 b.	1,6
Bo'linmaydigan hajm	348,2	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

49,0 %

Navoiy sh. - 287 233,5

39,8 %

Karmana t. - 232 997,3

3,0 %

Qiziltepa t. - 17 883,5

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

0,2 %

Tomdi t. - 885,5

0,3 %

Konimex t. - 1 733,8

0,4 %

G'ozg'on sh. - 2 623,6

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **49,0 %** ulush bilan **287 233,5** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani **0,2 %** ulush bilan **885,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,5	2,3	4,4
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	2,2	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	1,8	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,3	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,7	16,1	12,5
Sanoat tovarlari	16,6	31,1	28,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	54,9	37,8	44,6
Turli xil tayyor buyumlar	6,7	6,3	3,8
Xizmatlar	5,3	2,1	3,3




2023- yil yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, mashinalar va transport asbob-uskunalari 2022- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **37,8 %** dan **44,6 %** gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importning ulushi **2,3 %** dan **4,4 %** gacha, xizmatlarda esa **2,1 %** dan **3,3 %** gacha o'sdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr mln. AQSH doll., ulushi, % da)

2023- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **19,3** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **3,3** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **180,9** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**54,6** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**45,2** %) dan iborat bo'ldi.



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.